

FOLKLORIZM HODISASI VA UNING O'ZBEK BOLALAR ADABIYOTIDA TA'SIRI

Annotatsiya. Bugungi kunda yozma adabiyot ijodkorlarining asarlarida xalq og'zaki ijodidan ko'plab namuna, parcha va o'xshatishlar keltirilayotganini ko'rish mumkin. Ushbu maqolada xalq og'zaki ijodi(folklor)ning yozma adabiyotga, xususan, bolalar adabiyotiga ta'siri xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Og'zaki adabiyot, folklor, folklorizm, yozma adabiyot, motiv, ritm, janr, o'xshatish.

ФЕНОМЕН ФОЛЬКЛОРИЗМА И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА УЗБЕКСКУЮ ДЕТСКУЮ ЛИТЕРАТУРУ

Аннотация. Сегодня в произведениях писателей письменной литературы можно увидеть множество примеров, отрывков и сравнений из фольклора. В данной статье говорится о влиянии фольклора на письменную литературу, особенно детскую.

Ключевые слова: Устная литература, фольклор, фольклоризм, письменная литература, мотив, ритм, жанр, сравнение.

THE PHENOMENON OF FOLKLORE AND ITS INFLUENCE ON UZBEK CHILDREN'S LITERATURE

Abstract. Today, it is possible to see many examples, excerpts and similes from folklore in the works of writers of written literature. This article talks about the influence of folklore on written literature, especially children's literature.

Key words: Oral literature, folklore, folklorism, written literature, motive, rhythm, genre, simile.

Badiiy so'z san'ati madaniyatning eng qadimgi va uzoq tarixga ega bo'lgan bir sohasidir. Uning kurtaklari ibtidoiy jamoa tuzumi davrlaridayoq vujudga kelgan. Mehnat jarayonining rivoji, kishilar tajribasi va ongining taraqqiyoti og'zaki adabiyotning rivojlanishi uchun zamin yaratgan. Insonlar asta-sekin turmush tajribalarini, tabiat va jamiyat haqidagi fikr-tushunchalarini obrazli so'z orqali tasvirlash, bayon etish ko'nikmalarini yarata boshlaydilar. Badiiy so'z tajribasining o'sishi, badiiy did va zavqning takomillashib borishi xilma-xil badiiy shakllarni, adabiy janrlarni vujudga keltiradi. Shu tariqa badiiy so'z san'ati yozuv va yozma adabiyotdan ko'p vaqtlar ilgari og'zaki ijod shaklida paydo bo'ladi hamda yozma adabiyotning vujudga kelishiga zamin hozirlaydi. U og'izdan og'izga, avloddan avlodga, davrdan davrga o'tadi. Biroq u dastlab qanday yaratilgan bo'lsa, har qachon ham aynan shu holicha saqlanib qolmaydi, balki ijodiy qayta ishlanadi, turli xil o'zgarishlarga uchraydi, yangi-yangi ma'lumotlar bilan boyiydi, yangi tarixiy sharoitga muvofiqlashadi, keyingi yaratilgan asarlar bilan birga yashaydi, uzoq umr ko'radi. Shu bilan bir qatorda yozma adabiyotning tajribalaridan ijodiy foydalanadi. Og'zaki adabiyotning bu turi hozirgi zamonaviy adabiyotda — Folklorshunoslik deb ataladigan katta bir janrni tashkil etadi.

Badiiy asrlarda folklorizm — bu xalq og'zaki ijodining, an'anaviy qoidalar va motivlarining badiiy asarlarga ko'chirilishi jarayonidir. Folklorizm, odatda, xalqning madaniyati, tarixi va urfodatlar bilan chambarchas bog'langan bo'lib, u badiiy asarlarning mazmuni va shaklida aks etishi mumkin.

Folklorizmning ahamiyati:

1. Madaniy meros: Folklorizm orqali xalq og'zaki ijodi badiiy adabiyotga kirib, uning madaniy merosini saqlashga yordam beradi. Bu jarayon xalqning tarixiy xotirasini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi.

2. Identitetni mustahkamlash: Folklor elementlari badiiy asarlarda ishlatilganda, ular o'z xalqining identitetini yuksaltirishda yordam beradi. Bu orqali muallif o'z fikrlarini va qarashlarini yanada kuchliroq ifoda etishi mumkin.

3. Estetik qimmat: Folklor motivlari badiiy asarlarga estetik chuqurlik va rang-baranglik kiritmoqda. An'anaviy elementlar zamonaviy san'atkorlar tomonidan yangi kontekstlarda qayta talqin qilinishi mumkin.

Badiiyatda folklorizmning ko'plab namunalari mavjud. Masalan:

- Navoiy asarlarida: Alisher Navoiy "Xamsa"si ichida ko'plab xalq og'zaki ijodidan olingan motivlar va qahramonlarni uchratamiz.

- Shayx Sufiyning "Dastoni Iroqi": Bu asarda folklor elementlari keng qo'llanilgan bo'lib, unda xalq qahramonliklari va qadriyatlari aks ettirilgan.

- O'zbek kino san'atida: O'zbek filmlarida ham folklor unsurlari ko'p uchraydi. Masalan, "Maftuning dilbari" filmidagi sahnalar an'anaviy urf-odatlarini aks ettiradi. Folklorizm badiiyatda muhim o'rin tutuvchi jarayon bo'lib, u xalq madaniyatini saqlash va rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Badiiy asrlar davomida ushbu jarayon davom etib kelmoqda va kelajakda ham davom etishi kutilmoqda. Shunday qilib, folklor orqali biz o'z tariximizni va madaniyatimizni anglab yetamiz hamda uni avlodlarga etkazamiz.

Folklor yozma adabiyotning bunyodga kelishi va rivojlanishiga genetik manba bo'lib xizmat qiladi. Badiiy asar yozish sohasidagi ilk urinishlar folklor tajribasiga suyanish va uni ijodiy o'zlashtirish negizida kechganligi, qolaversa, bunda folklorga xos sujetlar, obrazlar, motivlar, uslub va tasviriy vositalardan ijodiy foydalanilganligi hech kimda shubha uyg'otmaydi. Kishilik ma'naviyati tarixida bu beminnat sarchashmadan bahramand bo'lmagan biror so'z san'atkorini tasavvur qilish amri maholdir. Chindan ham «Shohnoma» xalqdan olib yozilgani tufayli Abdulqosim Firdavsiyga mangu baxsh etadi. Ulug' Alisher Navoiy ham xalqning serjilo og'zaki adabiyotidan ta'lim olib, jahonshumul shuhrat qozongan «Xamsa» va «Xazoyinul-ma'niy» singari o'lmas asarlarini yaratdi. Poshshoxo'ja "Gulzor" va "Miftohul-adl" asarlarini bevosita folklor ta'sirida yozgani ma'lum, Muhammadsharif Gulxaniyning «Zarbulmasal»i folklordan ijodiy ilhomlanishning ko'rkam namunasi sanaladi.

Og'zaki va yozma adabiyotlarning o'zaro ta'siri va hamkorligi barcha xalqlarning adabiyotlariga xos hodisa bo'lib, o'sha adabiyotlarning shakllanishi va yuksalishini ta'minlashda, ularda xalqchil realistik tasvirning tantana qilishida, yangi obrazlar, yangi mavzular, yangi motivlar, yangi shakllar va xalqona ruhni ta'minlovchi obrazlilik va ifodaviy vositalar hisobiga to'lisha borishiga, shuningdek, folklor va yozma adabiyotga xos janrlarning o'zaro sintezlashuvi asosida badiiy ertak va uning xilma-xil ichki ko'rinishlari (ertak-drama, ertak-qissa, ertak-roman, ertakopera)ning yuzaga kelishida, barmoq she'r tizimining yozma adabiyot arsenaliga o'tib, barqarorlashuvida muhim rol o'ynab kelmoqda.

O'zbek folklorining so'z san'atiga asoslangan janrlar tizimi doston, ertak, qissa, rivoyat, naql, afsona, mif, lof, latifa, marosim folklori, bolalar folklori, og'zaki drama, maqol va hikmatli so'zlar, afsun, avrash, olqish va qarg'ishlardan iboratdir. Folklor har bir xalqning ma'naviy boyligi hamda ulug' qadriyatidir. Insonning ma'naviyatini yuksaltirishda xalq og'zaki ijodining o'rni haqida gap ketar ekan, aslida, bu jarayon bolaning tug'ilishidan boshlanadi. Onalarimiz, momolarimiz aytgan allalar, ertaklar, tez aytishlar, maqollar va qo'shiqlar bolaning tili va dunyoqarashi shakllanishida alohida ahamiyat kasb etadi. Har bir yosh vakillarini birday qiziqtiruvchi xalq o'yinlari esa bolaning ham aqlan, ham jismonan ulg'ayishida muhim omillardan biri hisoblanadi. Shuningdek, har bir xalqning til boyligi birinchi navbatda, uning folklorida namoyon bo'ladi. Biror bir xalqning qanday xalqligini bilish uchun uning xalq og'zaki ijodini o'rganish zarur. Folklorda xalqning til imkoniyatlari, mushohada tarzi, ijodiy quvvati aks etgan bo'ladi. Alloma Hodi Zarif: —Folklor asarlarining ilmiy va badiiy qiymati ularning lug'at boyligi bilan belgilanadi – degan edi. Barcha davr tilshunoslari xalq poetik ijodini o'rganish qiziqtirib

kelgan. Mahmud Koshg'ariy zamonidan to bugungi kunga qadar xalq og'zaki ijodi haqida nimaiki aytilgan bo'lsa, bularning bari buyuk merosni o'rganishga o'zining munosib ulushini qo'shgan.

Qadim asrlardan beri jahon va o'zbek adabiyotida folklordan foydalanib kelinadi. Bu jarayon turli davrlarda turlicha kechgan. Xususan, o'zbek yozma adabiyoti folklordan janr, sujet, vazn va qofiya qo'llashni o'zlashtirgan bo'lsa-da, ma'lum qonuniyatlar asosida uyg'unlashib, badiiy jihatdan taraqqiy etgan. Shu tariqa mif, afsona, rivoyat va boshqa ko'plab folklor janrlarining o'zbek she'riyatiga ta'sir doirasi kengaygan. Alla, yor-yor kabi folklor janrlari istiqlol davri o'zbek she'riyatiga ham ko'cha boshladi. Bu esa, mazkur davr she'riyatida folklorizmning yangi ko'rinishlarini paydo qildi. "Folklor" va "folklorizm" atamaları orasidagi farqni ilk bor adabiyotshunos Bahodir Sarimsoqov ilmiy asoslab berdi: "Biror ijodkor asariga biror maqsad bilan kiritilgan folklorga xos barcha materialni folklor deb emas, balki folklorizm atamasi bilan yuritish lozim, chunki unga ijodkor tomonidan muayyan bir ishlov berilgan bo'ladi".

Folklorizm – yozma adabiyotda qo'llangan og'zaki poetik ijod materiali. Ilmiy adabiyotlarda Folklorizm "ikkinchi shakl" (K.Chistov) atamasi bilan ham yuritiladi.

Folklorizm dastlab jahon adabiyotshunosligida keng ko'lamda o'rganilib, qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Folklorizm istiloh sifatida ilk bor XIX asrda fransuz folklorshunosi Sebiyo tomonidan qo'llanilib, "folklor bilan qiziqish va shug'ullanish" degan ma'noda ifodalangan. Rus adabiyotshunosligida XX asrning 30-yillariga kelib M.K.Azadovskiy badiiy adabiyotda va publitistikada folklordan foydalanishni folklorizm deb atadi. Keyinchalik bu atama 60-yillarga kelib xalqaro tus oldi.

Bu istiloh o'zbek adabiyotida o'tgan asrning 80 –yillarida kirib keldi. Bahodir Sarimsoqov o'z tadqiqotida uning mohiyatini yoritdi va shundan kelib chiqib tasnifladi. Tadqiqotdan anglashiladiki, xalq og'zaki ijodi namunalarining yozma adabiyotga ko'chishi – folklorizmni tashkil qiladi. Folklor va yozma adabiyot o'rtasidagi munosabatda ikki jihatni farqlaydi: a) folklor va adabiyot o'rtasidagi genetik (bevosita) aloqadorlik; b) har ikkisinin bilvosita –folklorizmlar orqali aloqasi. Adabiyot va folklor o'rtasidagi genetik aloqadorlikni o'rganish, folklorizmga qaraganda ancha mushkul negaki, folklorizm individual ijodkor tomonidan o'zlashtirilib, folklorga xos poetik vositalarni ongli ravishda – izchil g'oyaviy badiiy maqsadlarda qo'llanilishi orqali amalga oshiriladi. Genetik aloqadorlikda bu holat kuzatilmaydi. Unda yaratilgan asarlarni asosini tashkil qilgan badiiy obrazlar so'z san'atini aynan qaysi tipidan (ya'ni folklordanmi yo adabiyotni o'zidanmi?) tajriba alamashilganligi xususida mulohaza yuritiladi. Og'zaki ijodning nisbatan qadimiyligi ko'proq folklordan yozma adabiyotga o'tganligini ko'rsatadi.

Endi folklor asarlarining bolalar adabiyotidagi o'rni borasida so'z yuritamiz.

Bolalar adabiyoti badiiy adabiyotning eng soda va tushunarli qismi bo'lsa-da, uni yaratish va tahlil qilish boshqalariga nisbatan bir qancha murakkabroqdir. Chunki unda ishlatiladigan so'zlar oddiy bo'lgani bilan, undagi tushuncha va tasavvurlar, majoziy obrazlar hayoq haqiqatni ochib beruvchi eng muhim manba hisoblanadi. Bundan tashqari bolalar adabiyoti bolalarning dunyoqarashini shakllantirish, ularning olam va odam tushunchalariga munosabatlarini to'g'ri yo'lga qo'yishdagi muhim obyekt sanaladi.

Folklor – xalq tomonidan yaratilgan, ming yillik an'ana va qadriyatlarini o'ziga singdira olgan ijoddir. Xalq og'zaki ijodi janrlari ham yengil, ravon, qisqa va mazmun jihatdan mukammaldir. Ayni shu jihatlari bilan bolalar adabiyoti bilan folklor uyg'unlashib ketadi. Chunonchi, ertaklardagi syujetlarni qarasak, topishmoqning javobini topgan g'olib kelishi, o'z fikrini maqollar orqali ifodalash, yengil aytiluvchi qo'shiqlardan foydalanish kabi holatlarni misol qilib olsak bo'ladi.

Adabiyotshunos olimlarimiz bolalar adabiyotini uch guruhga bo'lib ko'rsatadilar. Albatta, bunda bolalarning yosh guruhlari inobatga olingan. Bular: 2 – 7 yoshlilar uchun, 8 – 12 yoshdagi bolalar va 13 – 17 yoshdagi bolalar adabiyotlaridir.

Birinchi – maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar adabiyotida ertak, topishmoq, maqol, tez aytishlar oldingi o'rnlarda turadi. Chunki bu davrda bolalar o'zlari o'qiy olmaganliklari

sababli, faqat eshitib o'rganganlari bois, ularga yengil, esda qolarli adabiyotlar tavsiya etilgan. Bu davrda bolalar adabiyoti bilan ilk bor folklor namunalarini tinglash orqali tanishishni boshlashadi. Demak, folklor janri bu davrdagi bolalar uchun eng to'g'ri tanlovdir. Endi bu boradagi bir misolga e'tibor qaratsak. Bolalar adabiyotining yetuk namoyondalaridan biri Anvar Obidjonning "Suhbat" she'rida bolalar va g'ozlarning savol-javob tarzidagi suhbatini ko'ramiz:

- G'ozlar bir so'z deysizmi?
- G'a, g'a-g'a.
- Totli sul i yeysizmi?
- Ha, ha, ha.
- Nega patni silaysiz?
- G'oq, g'oq, g'oq.
- Mendan nima tilaysiz?
- Boq, boq, boq!

Bolalar adabiyotidagi bu kabi parchalar bolani mehnatsevarlikka, tabiatni asrabavaylashga o'rgatsa, "Oq terakmi, ko'k terak?" kabi o'yinlar va ulardagi aytishuvlar bolalarni jamoa bo'lib ishlashga, atrofidagi do'stlariga nisbatan adolatli va hamjihat bo'lishga o'rgatadi.

Shu o'rinda bolalar adabiyotining salmoqli qismini folklor janri, ayniqsa ertaklar tashkil etishini inobatga olish zarurdir. Ertakning muhim xususiyatlaridan biri uning hamisha xalq hayoti, kurashi, tarixi, ruhiy olami, dunyoqarashi, urf-odatlar bilan chambarchas bog'lanishi, insonlarga axloqiy va ma'naviy yo'ldosh bo'lib kelishidadir. "Tukli bilan turna", "Sholg'om", "Rostgo'y bola", "Qumursqa" kabi ertaklarni ana shu mazmundagi ertaklardan namunalar deb aytishimiz mumkin. Xalq ertaklari turli zamon va makonlardagi xalq hayoti va turmushi, axloqi va ma'naviy boyligi haqidagi beminnat ma'lumotlar manbaidir.

Qadim zamonlardan boshlab har bir davr ijodkorlari ertak mavzularidan foydalanib keladilar. Ko'hna Sharqda Abulqosim Firdavsiy, Rudakiy, Nizomiy, Jomiy, Navoiy bedil, Fuzuliy, Berdaq, Gulxaniy, Muqimiy kabi buyuk siymolar o'z ijodxonalarida xalq og'zaki ijodidan oziqlanib, ajoyib samaralarga erishdilar, o'lmas obrazlar yaratishda folg'klor xazinasidan qanday ta'lim olish, nimalarni o'rganishning ibratli tajribalarini berdilar. XX asr yangi o'zbek adabiyotining chinakam xalqchilligi va yuksak badiiyati uchun kurashgan, uning mustahkam poydevorini qurishda jonbozlik ko'rsatgan Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, H.H.Niyoziy xalq og'zaki ijodi materiallarini qayta ishlashda ibrat bo'larli o'ziga xos maktab yaratishdi. G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, Oybek, Mirtemir, Maqsud Shayxzoda, Sulton Jo'ra singari o'zbek yozuvchilari bu maktab an'alarini o'ziga xos yo'lda izchil rivojlantirdilar.

Ertaklar tili sodda, ifoda ravon, oddiy manzaralar tasvirlanishi bilan bir qatorda shu soddaliklar ortidagi butun bir hayotiy falsafaning turishi bolajonlarning kelajakdagi tarbiyasi uchun juda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu ertaklar orqali bola yaxshi yomon, to'g'ri yoki noto'g'ri deb atalmish tushunchalarni anglay boshlaydi. U o'z ertaklari orqali hayot haqiqatlariga erisha oladi. Xalq ertaklarida el-yurti ko'z qorachig'iday avaylab saqllovchi qahramonlar ulug'lanadi; ayollarning haq-huquqlari himoya qilinadi; uzoq masofalar yaqin qilinadi; kishilar xarakteridagi yaramas odatlar, noma'qul illatlar tanqid ostiga olinadi; mardlik, epcchilik, dovyuraklik, mehnatsevarlik, halollik, vafodorlik, saxiylik g'oyalari ulug'lanadi.

O'zbek xalq ertaklari yaxshilikning yovuzlik ustidan g'alaba qozonishiga ishonchni kuchaytiradi. Tafakkuri shakllanib kelayotgan bola tasavvurini boyitadi, yaratuvchanlik qobiliyatini o'stiradi, idrokini kengaytiradi. Shu bois ham ota-bobolarimiz azal-azaldan farzand tarbiyasida bir-biridan qiziqarli syujetlarga boy ertaklarni aytib berishga alohida e'tibor qaratib kelgan. Bola qanchalik erta xalq og'zaki ijodi bilan yaqinlashtirilsa, shuncha foydali bolishini asoslab berishgan. Darhaqiqat, ezgu g'oyalarga yo'g'rilgan, hayot qiyinchiliklarini o'tkir zehn, aql-idrok, halollik, adolat bilan yengib o'tajak qahramonlarga boy, yakuni doim yaxshilik bilan tugovchi ertaklar, bolaning tarbiyasiga juda kuchli ta'sir etadi. Ularda endi-endi bo'y ko'rsatayotgan yolg'onchilik, maqtancholik, dangasalik, og'irlik, qo'rqqoqlik kabi salbiy xarakter xususiyatlari o'rnida to'g'riso'zlik, kamtarlik, mehnatsevarlik, halollik, mard va jasurlik kabi

ijobiy fazilatlar kamol topadi. Ertaklarning mavzu jihatdan turlari ko'p. Bolalar ular orasida, ayniqsa, hayvonlar haqidagi ertaklarni yaxshi ko'radilar.

Masalan, hayvonlar haqidagi ertaklar turkumiga kiruvchi "Susambil" ertagida eshak o'z onasidan "o'tning bo'lig'i, suvning tinig'i" bo'lgan Susambil haqida eshitadi. Payt kelib xo'jayinlarning adolatsizligidan to'yib, o'z uyidan voz kechib yo'lga tushadi. Unga yo'l bo'yi xuddi o'zi singari holatga duch kelgan ho'kiz, xo'roz, sichqonlar arilar unga hamroh bo'ladilar. Va nihoyat ular orzulariga yetganlarida bo'rilar hujumiga uchrashadi, bu holatda ularni yakdillik va hamjihatlik qutqarib qoladi. Ular umrlarining oxirlarigacha rohat-farog'atda yashaydilar.

Bu bir qarashda juda oddiy ko'ringan, ravon ifodalangan ertak bo'lib ko'rinishi mumkin. Ammo unda adolatsizlikka barham berisha uringan mard inson xarakteri singdirilgan obrazlar, xavf-xatar tug'ilganda panaga qochish o'rniga yakdillik bilan jang qila oladigan hamjihat insonlar tasviri keltirilgan. Bolalar buni bir qarashda tushunishlari qiyin va yoki umumna anglay ham olishmas. Ammo vaqt kelib ularning yoshlari katta bo'la borgan sari ular ertaklarda eshitgan voqealar ularning ko'z o'ngida namoyon bo'la boshlaydi. Shunda ular yaqin-atroflaridagi o'zlarining do'stlari bilan hamjihat bo'lishni ancha oldin, ya'ni ertak eshitib rohat oladigan yoshlik onlarida o'rganishganini, bu xususiyat ularning qon-qoniga singib ketganini anglab oladilar.

Ertaklarning yana bir muhim xususiyati shundaki, bu ularni hali mavhum fikrlashga qodir bo'lmagan bolalar tomonidan olamni idrok etilishini osonlashtiradi. Ertaklar har doim ibratli va tarbiyalovchidir. Bilamizki, farzand tug'ilib, to voyaga yetgunga qadar oila, ta'lim-muassasasi va atrofdagi ijtimoiy muhit ta'sirida shaxs sifatida kamol topadi. Mana shu mas'uliyatli va murakkab jarayonda tarbiya usullaridan eng bebahosi – kitob mutolaasi ekanligini allaqachonlar anglab yetganmiz. Shuning uchun ham bolani juda erta yoshdan kitobni sevisga o'rgatish maqsadida ularga aql-zakovat mo'jizasi bo'lgan ertaklarni aytib berishdan erinmaslik kerak. Negaki ertaklarda oilaviy tarbiyaning umumiy shartlari tahlil qilingan, axloqiy tarbiyaning taxminiy mazmuni aniqlangan. Ertak qahramonlarning taqdirini kuzatish, ajoyib vaziyatlar, ajoyib tasvirlar tilini sezgan holda bolaning ongi-shuuri rivojlanadi. Haqiqiy ertakning belgisi - bu yaxshi yakun. Bu bolaga psixologik xavfsizlik hissini beradi. Ertakda nima bo'lishidan qat'iy nazar, hamma narsa yaxshi yakunlanadi. Ma'lum bo'lishicha, qahramonlarning boshiga tushgan barcha sinovlar ularni yanada kuchliroq va dono qilish uchun zarur bo'lgan. Boshqa tomondan, bola yomon ish qilgan qahramon, albatta, munosib bo'lgan narsaga erishishini ko'radi va barcha sinovlardan o'tgan, eng yaxshi fazilatlarini namoyish etgan qahramon doim mukofotlanadi.

Bugungi kunda ma'lumki, shaxsni tarbiyalashda uning ruhiy holatiga ta'sir qilmasdan samaraga erishib bo'lmaydi. Xalq og'zaki ijodida avlod tarbiyasi aynan ana shu usuldan foydalangan holda amalga oshiriladi. Dostonlarimizning bosh qahramonlariga aylangan jasur va mard o'g'lonlar va barno va iboli qizlar timsoli hech bir o'quvchini e'tiborsiz qoldirmaydi. Ularning qilgan xatolari orqali yoshlarga to'g'ri yo'lni tanlash kerakligi uqtiriladi. Nafaqat dostonlarimiz tarbiyaviylik ahamiyati jihatdan folklorshunoslikda maqollarning ham ahamiyati salmoqli darajadadir.

Maqol og'zaki ijodning kichik ko'rinishlaridan biri. Folklorshunoslikda kichik janrlarni paremiya deb atash ham qabul qilingan. Maqollar hajm jihatdan kichik bo'lsa-da, fikr va mazmun jihatdan kech qamrovlidir. Maqol o'z tabiatiga ko'ra xalqaro janrlardan biridir. Dunyoda o'z maqoliga ega bo'lmagan xalqning o'zi yo'q. Chunki har bir xalq o'z qarashlari va hayotiy tajribalari mahsulini maqollar ko'rinishida avlodlarga qoldiradi. Shu o'rinda alohida ta'kidlashimiz kerak bo'lgan yana bir folklor namunasi bu topishmoqlardir. Topishmoqlar xalq og'zaki ijodining kichik va ommabop hamda xalqaro janrlaridan biri hisoblanadi. Bu janr yosh avlodni hayotni bilishga, borliqdagi narsa-buyumlarning xususiyatlarini yodda saqlab qolishga o'rgatadi. Topishmoqlarning mohiyati, asosan, metafora bilan bog'liq bo'lib, ularda topilishi lozim bo'lgan narsa-buyum xususiyatlari haqida ma'lumot beriladi. Topishmoq Aristotel ta'biri bilan aytganda — "Eng yaxshi metafora tuzish usulidir".

Folklor asarlarining yozma adabiyot bilan aloqasi tilimiz lugʻat boyligida namoyon boʻladi. Unda biz unutilib borayotgan urf-odatlarimiz, milliy qadriyatlarimiz, soʻzlarimiz oʻz ifodasini topadi. Xalqning boy madaniy merosini saqlab qolish, maʼnaviyat sarchashmalarini bezavol avlodlarga yetkazishda, albatta, yozma adabiyotning ahamiyati beqiyos. Badiiy adabiyot paydo boʻlibdiki, xalq ogʻzaki ijodi bilan oziqlanadi, uning goʻzal namunalarini qayta ishlanib, sayqallashadi. Chunki yozuvchi kitobxonni oʻz ijodiga qiziqtirishi uchun unga tanish olam manzaralarini ham sigdirishi lozim. Ana shunda kitobxon yozuvchining aytganlariga ishonadi, asar syujetini maroq bilan oʻqiydi. Qaysiki ijodkor folklor anʼanalari ichida yashagan, uni oʻziga singdirgan boʻlsa, oʻsha ijodkorning asari tili jihatdan ham ancha mukammal ekanligi kuzatiladi. Zero, milliy ong va tafakkurning shakllanishida badiiy asarning oʻrni beqiyos.

Demak, badiiy adabiyot bilan folklor oʻrtasidagi ijodiy aloqa oʻziga xos anʼana boʻlib, maʼlum estetik qonuniyatlar doirasida kechadigan jarayondir. Bu ijodiy aloqalar natijasida badiiy ijodda yuzaga kelgan sujet va obrazlar, mavzu va badiiy detallar badiiy adabiyotga koʻchib, ijodkorning badiiy niyati, individualligi va poetik iqtidoriga bogʻliq holda talqin qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va folklor. Toshkent: Fan, 2006.
2. Jalolov Gʻ. "Oʻzbek folklorida janrlararo munosabat". – Toshkent.:Fan, 1979.
3. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. Toshkent: Fan, 2004.
4. Nurkeldi Jarasbayev. "Oʻzbek folklorshunosligi, tarixi va uning adabiyotdagi oʻrni. 2021.
5. Sevara Karimova. "Oʻzbek xalq ogʻzaki ijodi va yozma adabiyot munosabatlari". 2022.
6. <https://wikipedia.org>
7. <https://researchgate.net>
8. <https://researchedu.org>
9. <https://www.in-academy.uz>